



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 26-avgust, shanba,
102 (23.823)-son

**MAQSADIMIZ —
HAR BIR
YOSHGA
MUNOSIB
SHAROIT
YARATISH**
SH. MIRZIYOYEV.

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!

XALQIMIZ UCHUN BELGILAB OLINGAN VAZIFALARNING IJROSI MUHIM

Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, sanoat va xizmat ko'rsatish loyihalari bilan tanishish hamda hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalarini belgilash maqsadida 24-avgust kuni Samarqand viloyatida bo'ldi.

Davlatimiz rahbari dastlab Payariq tumaniga borib, Imom Buxoriy maqbarasini ziyorat qildi. Qur'on tilovat etilib, duo o'qildi.

— Ilohim, duolarimiz ijobat bo'lib, Alloh yurtimizni tinchlik-osoyshtalikda saqlasin, fayzu baraka bersin. Mana, mustaqilligimizning 32 yillik bayrami arafasida turibmiz. Xalqimiz bilan birga shu kunlarga yetganimizga shukrlar aytamiz. Oldimizga yana katta-katta rejalar qo'yganmiz. Buning uchun ikki karra ko'proq harakat qilishimiz, yoshlar tarbiyasiga e'tibor berishimiz kerak. Hamma sohada ta'limni, bilimni oshirsak, natijalar yuqori bo'ladi. Yoshlarimiz Imom Buxoriy, Mirzo Ulug'bekday bobolarimizga munosib bo'lishini istaymiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Islom ma'rifati bo'yicha, xuddi Buxorodagidek, Samarqandda ham namuna yaratish kerakligi ta'kidlandi. Allomalarimiz merosidan foydalanib, jaholatga qarshi ma'rifatni kuchaytirish, yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan asrash bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Hozirgi kunda Imom Buxoriy majmuasi yangidan barpo etilmoqda. Davlatimiz rahbari pardoqlash ishlari namunalari ko'zdan kechirdi.

Prezidentimiz Oqdaryo tumanidagi 32-umumta'lim maktabini kirib ko'rdi.

Konstitutsiyamizda O'zbekiston ijtimoiy davlat ekanini belgiladi. Bu boradagi eng muhim sohalaridan biri ta'limdir. Shu maqsadda yangi muassasalar qurish bilan birga, ta'limning mazmunini yaxshilashga ham e'tibor qaratilmoqda.

782 o'quvchiga mo'ljallangan 32-umumta'lim maktabi joriy yilda kapi-



Prezidentimiz xonalarni kirib ko'rdi, yozgi to'garakka kelgan bolalar bilan suhbatlashdi.

— Biz oliy ta'limda qamrovni kengaytirib boryapmiz. Lekin hamma ham universitetda o'qishni tanlamaydi. Shuning uchun farzandlarimizga maktabdayoq chet tillari va hunar o'rgatishni maqsad qilganmiz. Kimning, kichkina bo'lsayam, qo'lida kasbi, hunari bo'lsa, kuni o'tadi. Keyin yana o'z ustida ishlab, mahoratini oshirishi mumkin. Maqsadimiz — har bir yoshga munosib sharoit yaratish, — dedi davlat rahbari.

Shavkat Mirziyoyev shu yerda o'qituvchilar va mehnat faxriylari bilan muloqot qildi.

Prezidentimiz Samarqand davlat universitetining Biokimyo instituti faoliyati

qiqotlar laboratoriyasi — gerbariy hamda talabalar oshxonasi barpo etildi.

Ahamiyatli, shu tariqa ikki yo'nalish mutaxassislariga bir maydonda ilmiy izlanishlar olib borish imkoniyati yaratildi. Bu biologiya va kimyo yo'nalishidagi innovatsiyalar integratsiyasini yangi bosqichga olib chiqadi. Davlatimiz rahbari institutdagi o'quv xonalari, oranjereya, ilmiy laboratoriyalardagi sharoitlar bilan tanishdi. Professor-o'qituvchilar bilan muloqot qildi.

Olimlar istiqbolda onkologik dori vositalarining kimyoviy transformatsiyasi asosida xavfli o'smalarga qarshi tanlab ta'sir etadigan yangi dori vositalarini yaratish rejasi haqida so'zlab berdi.

Prezident institut professor-o'qituvchilarini chet elda malaka oshirishga yuborish, farmatsevtika va kimyo mahsulotlarini ishlab chiqish, g'oz, uzum, donning yangi navlarini yaratish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Bugungi kunda Biokimyo institutida 8 ta'lim yo'nalishida 2800 nafar talaba tahsil olmoqda. Umuman, universitetda 12 ta ilmiy va 67 ta o'quv laboratoriya bor.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqand tumanida barpo etilayotgan savdo, sanoat va servis majmuasi qurilish maydonida bo'ldi. Majmuahududi 37 gektar. Bu yerda umumiy qiymati 2 trillion 79 milliard so'mlik 7 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

Ulardan birinchisi — avtomobillar ehtiyoj qismlari bozori yaqinida ishga tushiriladi. 11 gektar maydondagi savdo do'konlarida 3 mingta ish o'rni yaratiladi.

Ayni paytda gazoblok, penoplast, ohak va zichlagich ishlab chiqarish korxonalari qurilishi davom etmoqda. Ular shu yil oxirida foydalanishga topshiriladi. Shuningdek, kelgusi yillarda "Ko'ksaroy avtomoli" savdo va ko'ngilochar markazi, oynaga ishlov berish, plastik va alyumin romlar korxonasi qurib bitkazilishi rejalashtirilgan.

Umuman, ushbu loyihalarda o'n mingga yaqin aholi doimiy ish bilan ta'minlanadi.

Davlatimiz rahbari buning ahamiyatiga alohida to'xtalib, loyihalarni tezlashtirish, ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, ishsiz aholi bandligini ta'minlash muhimligini ta'kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqand shahridagi "Aziya metall prof"

mas'uliyati cheklangan jamiyati faoliyati bilan tanishdi.

Ushbu yirik zavodda 2018-2022-yillarda xitoylik hamkorlar bilan birgalikda umumiy qiymati 110 million dollarlik loyihalar amalga oshirilgan. Bu mablag'ning 33 million dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyadir.

Dastlab, 2018-yil dekabrda rux va polimer bilan qoplangan metall listlar tayyorlash boshlangan bo'lsa, ikkinchi bosqichda, 2021-yildan metall quvurlar va profililar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. 2022-yil fevraldan issiq o'ramali metall listlar va qurilish uchun profililar ham ishlab chiqarilmoqda.

Bu mahsulotlar import o'rni bosishi va eksportbopligi bilan ahamiyatli. Xususan, o'tgan yili korxona tomonidan 63

kvadrat oyna ishlab chiqarish quvvati yaratiladi. 930 ta yangi ish o'rni ochiladi.

Prezidentimiz mahalliyashtirish va tannarxni tushirish orqali eksportda raqobatbardoshlikni oshirish kerakligini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda yil yakuniga qadar amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalar bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Keyingi yillarda viloyat izchil rivojlanmoqda. Lekin bu barcha tumanlarda mutanosib emas.

Masalan, hudud sanoatining qariyb yarmi Samarqand shahriga to'g'ri keladi. O'tgan yetti oyda viloyatda 600 million dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya o'zlashtirilgan. Lekin ularning 78 foizi Samarqand shahri, Kattaqo'rg'on, Pastdarg'om va Samarqand tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan. So'nggi besh yilda elektr iste'moli 1,5 baravarga oshgan. Qishloq xo'jaligida hosildorlik, suvni tejash yetarli emas.

Shu kabi tahlillardan kelib chiqib, Prezidentimiz tadbirkorlik, investitsiya, sanoat, turizm sohalaridagi imkoniyatlarni ko'rsatib o'tdi.

Mahallalarda tadbirkorlik va dehqonchilikni qo'llab-quvvatlash, uzum va pista yetishtirishni ko'paytirish, serqatnov yo'llar bo'yida xizmat ko'rsatish sohasida aholini ishl qilish zarurligi ta'kidlandi.

"Urgut" erkin iqtisodiy zonasining 15 ta tumandagi hududi va viloyatdagi 106 ta sanoat zonasini infratuzilma bilan ta'minlash uchun shu yilning o'zida 170 milliard so'm ajratilgan. Lekin ularda 620 gektar yer bo'sh turibdi. Mutasaddilarga infratuzilma muammosini hal etib, ushbu maydonlarga tadbirkorlarni jalb etish bo'yicha topshiriq berildi.

Oqdaryo va Past Darg'omdagi podstantsiyalarni yangilash, yil yakunigacha Kattaqo'rg'on tumani va Samarqand shahrida quvvati 250 megavatt bo'lgan 2 ta quyosh elektr stansiyasini ishga tushirish vazifasi qo'yildi.

Viloyatda turizm sohasida 20 mingta doimiy ish o'rni yaratish va eksportni 500 million dollarga yetkazish imkoniyati borligi qayd etildi. Buning uchun jozibador dasturlarni ko'paytirish, yo'llarni va jamoat transportini qulay qilish zarurligi ta'kidlandi. Turizm salohiyati yuqori 100 ta mahalla va qishloqda "turizm ipotekasi" dasturi asosida yangi sayohat manzillari ochish bo'yicha ko'rsatma berildi.



tal ta'mirlandi. 22 ta sinfxona, sport zali, oshxona, STEM laboratoriyasi, kompyuter xonalarida zamonaviy sharoitlar yaratilgan. Kutubxonada 1 ming 500 dan ziyod badiiy adabiyotlar jamlangan.

Ma'lumki, yoshlarni kamida ikkita chet tili va bitta zamonaviy hunarga o'rgatish maktab ta'limidagi asosiy yo'nalish sifatida belgilangan. Maktabning bo'sh turgan yer maydonida yengil konstruksiyalardan qo'shimcha xonalar qurilib, 15 xil kasb-hunar o'rgatish uchun sharoit yaratildi. Bu yerda o'quvchilar kompyuter, texnik xizmat ko'rsatish, to'quvchilik, sartaroshlik, kosmetologiya, kulolchilik, o'ymakorlikning ilk saboqlarini o'rganadi.

bilan tanishdi.

Bugungi kunda universitetda 25 mingdan ortiq talaba ta'lim oladi. Bu yerda to'rtta — Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti, Muhandislik fizikasi instituti, Turkologiya ilmiy-tadqiqot instituti hamda Biokimyo instituti tashkil etilgan.

Biokimyo instituti joriy yilda universitetning biologiya va kimyo fakultetlari negizida ochildi. Ta'lim muassasasi uchun yettita yangi bino qurildi. Jumladan, jami mingdan ortiq o'ringa ega 2 ta o'quv binosi, majlislar zali, oranjereya-issiqxona, biologik tadqiqotlar laboratoriyasi — vivariy, botanik tad-



million dollarlik mahsulot eksport qilgan. Ushbu ko'rsatkich joriy yilda yanada yuqori bo'lishi kutilmoqda. Ayni paytda korxonada 520 nafar ishchi mehnat qilmoqda.

Davlatimiz rahbari loyihaning to'rtinchi bosqichi — armatura ishlab chiqarish korxonasining qurilish maydonida bo'ldi. Bu yerda yiliga 390 ming tonna armatura quyish quvvati hamda 150 ta yangi ish o'rni yaratiladi.

Umuman, 2023-2025-yillarda yana beshta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Ularga jami 621 million dollar yo'naltirilib, yiliga 1,7 million tonna metall hamda 10 million metr

— Xalqimiz biz belgilab olgan juda katta vazifalarning ijrosini kutayapti. Har bir hokim hududidagi imkoniyatdan to'g'ri foydalanib, mahsulot chiqarib, odamlarga ish o'rni yaratmasa, buni chetdan kelib, hech kim qilib bermaydi. Natijadorlikni har yili oshirib borish zarur. Qolgan to'rt oy kelgusi yilga mustahkam zamin yasaydigan oylar bo'lishi kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yig'ilishda muhokama qilingan masalalar bo'yicha viloyat va tumanlar hokimlari, soha mutasaddilari axborot berdi. Shu bilan davlatimiz rahbarining Samarqand viloyatiga tashrfi yakunlandi.

O'ZA.



Kattaqo'rg'on tumani viloyatimizning tadbirkorlik rivojlangan, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan hududlaridan biri hisoblanadi. Tumanda aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishtirish maqsadida viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi jurnalistlar uchun press-tur tashkil etdi.

UZUMCHILIK - SERDAROMAD SOHA
Bog'dorchilik, xususan, uzumchilik serdaromad sohadir. Tumanning Mundiyo mahallasida uzum yetishtirishning hadisini olgan, shu orqali o'z xonadonida mo'may daromad topayotgan fuqarolar ko'pchilikni tashkil etadi. Mahallaning Saroy qishlog'ida yashovchi Pardaboy Ortiqov ana shunday usta bog'bonlardan.
- Hovlimdagi 4 sotix yerga uzumning husayni navidan ekanman, - deydi P.Ortiqov. - Bir mavsumda o'rtacha 30-35 million so'ngacha daromad qilyapmiz. Bu ro'zg'orning kam-ko'stini butlab, qo'shimcha sarmoyaga zamin bo'lyapti. Bu yil uzum har yilgidan 15-20 kun erta pishib yetildi.
Mahallaning o'sish nuqtasi uzumchilik hisoblana-di. Qaysi xonadonga kirmang, aholi voyish usulida uzum yetishtirayotganiga guvoh bo'lasiz. Bu orqali hududda tok ko'chatchiligi ham yangi tarmoqqa aylanaypti.
- Uzumchilik deganda ko'pchilikning ko'z oldida yoshi ulug' bog'bon jonlanadi, - deydi mahalladagi hokim yordamchisi Olimjon Davronov. - Aslida esa daromadi yaxshi bo'lgani uchun mahalladagi yosh oilalar, har bir xonadon egalari uzum yetishtirib, daromad qiladi. Shuning uchun ham mahallamizda yoshlar ishsizligi deyarli uchramaydi.

PARRANDACHILIK – YETTI XAZINANING BIRI
Aholining bandligini ta'minlash va qo'shimcha daromad topishi uchun tumanda bu tarmoqqa alohida e'tibor berilmoqda. Oilalarni kambag'allikdan chiqarish maqsadida mazkur yo'nalishda rejali ishlar boshlab yuborilganiga ancha bo'ldi.
O'tgan yil ishsizlar ro'yxatida turgan fuqarolar ayni shu yo'nalishda ish boshlab, bugun o'zini o'zi

KATTAQO'RG'ONDA AHOLI BANDLIGI QANDAY HAL ETILYAPTI?

band qilyapti va shu orqali ro'zg'origa qo'shimcha daromad keltiryapti.
Tavaron mahallasida yashovchi Shahobiddin Zokirovlar oilasi ro'zg'orning daromadini parrandachilikka bog'lagan. Hokim yordamchisining ko'magi bilan mazkur oilaga 32 million so'mlik kredit asosida 300 dona tuxum yo'nalishidagi tovuq olib berildi.
- Albatta, har bir sohada ilm bilan natijaga erishish mumkin, - deydi tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i Elbek Rahimov. - Parranda tarqatilyotgan xonadon egalari ham uni parvarishlash bo'yicha mutaxassislar yo'l-yo'riq va tushunchalar beryapti. Ushbu xonadonlarga parrandalarning dastlabki ozuqasi ham yetkazib berildi. Tumandagi ishsiz fuqarolarga "Qo'shrabot Lomann Parranda" MCHJ tomonidan imtiyozli kredit hisobiga 17,5 ming bosh tuxum yo'nalishidagi parranda ozuqasi bilan tarqatilishi rejalashtirilgan. Bugungacha aholiga 2 mingga yaqin tovuq tarqatildi.

2 QUTI ASALARI OILASI 200 TAGA YETDI
Asalarichilik inson sog'lig'i uchun foydali mashg'ulot bo'lishi barobarida kamxarajat va serdaromad hisoblanadi. Mullako'rpa mahallasi Talmaron qishlog'ida yashovchi O'tkir Boxorov ishni havaskorlikdan - 2 ta asalari oilasini boqishdan boshlagan. Bugun u haqiqiy asalari mutaxassisiga aylandi.
- Hozirda xonadonimizda 200 ta asalari oilasini parvarish qilyapmiz, - deydi O'.Boxorov. - Bundan 2 tonna asal olishni rejalashtirib turibmiz. Muhimi, yig'ilgan asalning xaridorlari ham naqd. Asalari juda nozik hasharot. Yaxshi parvarish, e'tibor kerak. Buning uchun mehnat, izlanish va eng muhimi, sohaga doir bilim va malaka talab etiladi. Asalarichilik nafaqat oila daromadiga, balki tabiatga ham foyda keltiradi.
Xonadon egasi bugun asal yetishtirish bilan birga, ona asalarilarni ko'paytirib, aholiga sotishdan ham yaxshigina daromad qilar ekan.

KASANACHILIK XOTIN-QIZLARNING DAROMAD MANBAIGA AYLANYAPTI
Tumanning Qo'shqo'ton qishlog'ida ayollarni ish bilan band qilish va daromadini oshirish bo'yicha samarali ishlar yo'lga qo'yilgan.
Shu mahallada yashovchi Nafisa Siddiqova xonadonida kasanachilik asosida ko'rpa-to'shak, yostiqlik, dasturxon, beshik yopinchilari, chimildiq, ayollar kiyimlari tikib, daromad topayotgan edi. Uning hunaridan unumli foydalangan holda faoliyatini kengaytirishga ko'maklashildi. Mahalladagi maktabning bo'sh turgan ustaxonasidan joy ajratilib, kasb-hunarga o'qitish maskani tashkil etildi.
Hozirda tajribali chevar mahalladagi 13 nafar xotin-qizga "ustoz-shogird" an'anasida kasb sirlarini o'rgataypti. Bugun ulardan besh nafari uyda o'tirib, kasanachilik asosida daromad qilmoqda.

HUNARLI YOSHLAR KO'PAYDI
Tumanda yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash borasidagi amaliy ishlar ham namuna bo'larlik. Omonboyko'prik mahallasida yashovchi Sodiqjon Amonov qo'li gul tadbirkor yoshlardan.
- Avval turli mavsumiy ishlarda ishlab yurgan edim, - deydi Sodiqjon. - Ish masalasida hokim yordamchisi Vasiliddin Shakarovga uchrashganimda avval biror hunarni egallasam, so'ng shu yo'nalishda ish boshlashimga ko'maklashishni va'da qildi. Hokim yordamchisining maslahati bilan Farg'ona viloyatida stol-stul yasashni o'rganib keldim. Hozirda butun oilamiz shu ish bilan mashg'ul. Daromadga kirganimizga hali ko'p bo'lmadi. Ammo natijalardan ko'nglim to'q. Qolaversa, 5-6 nafar yoshga kasb sirlarini o'rgataypman.
Kattaqo'rg'onliklar azal-azaldan mirishkor, tadbirkor va hunarmand ustalari bilan tanilgan el. Bugun tumanda aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilyotgan ishlarda bu qo'l kelyapti.

Sulaymon MARDIYEV.

↓ Savol bering, javob beramiz

Nazoratchilar uyga kirmoqchi bo'lsa...

Elektr tarmoqlari korxonasidan kelgan nazoratchilar uyimdagi hisoblagichni ko'rib, tekshirishlarini aytishmoqda. Men esa qarzim yo'qligini aytib, ularni ichkariga qo'ymadim. O'zi «aqli hisoblagich» bo'lsa, unga inson omili aralashmasligi kerak emasmi? Nazoratchilar "schyotchik"ni tekshirish uchun uyimga kirishi shartligini ta'kidlashmoqda. Ularning bunga haqi bormi?

Qobil NAZAROV,
Samarqand shahri.



Ha, bor. Hududiy elektr tarmoqlari korxonasining vakili guvohnomasini ko'rsatgan taqdirda, xonadondagi elektr energiyasini hisobga olish asboblarini soat 8:00 dan 20:00 gacha hech qanday qarshiliklarsiz ko'rish huquqiga ega.
Elektr energiyasini hisobga olish asboblarini ko'zdan kechirish uchun elektr tarmoqlari korxonasi xodimini qo'ymaslik dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Iste'molchi dalolatnoma bilan tanishishi shart. Iste'molchi dalolatnomani imzolashni rad etgan taqdirda, dalolatnomada bu haqda tegishli yozuv qayd qilinadi. Iste'molchining dalolatnomani imzolashni rad etishi uni elektr tarmoqlaridan uzib qo'yishga asos bo'ladi va bu haqda u xabardor etilishi lozim.

Zafar QARSHIYEV,
huquqshunos.

BIR RAQAM SHARHI

Viloyatda joriy yilning 6 oyida chakana savdo aylanmasi 12198,8 milliard so'mni tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,7 foizga oshdi. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi o'rtacha 2947,5 ming so'mni tashkil qilgan. Viloyat statistika boshqarmasi axborot xizmati.

NNTlarga shikoyat qilishda imtiyoz bor

Nodavlat notijorat tashkilotlari o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzayotgan davlat organlarining g'ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilganida davlat bojini to'lashdan ozod qilinadi. Ya'ni, ularning arzi boji to'lanmagani uchun ko'rmasdan qoldirilmaydi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari, shuningdek, ularning muassasalari, o'quv-ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalari barcha davolar yuzasidan sudga murojaat qilganda ham shunday imtiyozga ega bo'ladi.
Eslatib o'tamiz, bu yengillik fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga yo'llangan ariza, shikoyat va davolar bo'yicha qo'llaniladi.

Sanjar BO'RIYEV,
viloyat adliya boshqarmasi bo'lim boshlig'i.

Samarqand shahridagi Yoshlar markazida "Maroqand obod" davlat unitar korxonasi tashabbusi bilan tashkil etilgan davra suhbatida Fransiya Taraqqiyot agentligi ishtirokida amalga oshirilayotgan "Samarqand shahrida qattiq maishiy chiqindilar boshqaruvini modernizatsiya qilish" loyihasi muhokama qilindi.

Chiqindi poligoni qurilishi boshlanadi

Samarqand shahrida chiqindilarni boshqarishni modernizatsiya qilish loyihasi haqidagi taqdimotda loyiha-niing maqsadi, rejalarini amalga oshirishning kelgusidagi bosqichlari haqida ma'lumot berildi.
Mazkur loyiha-niing umumiy qiymati 37,167 million yevro bo'lib, 2018-yil avgust oyidan amalga oshirish boshlangan.
- Fransiya Taraqqiyot agentligi bilan kelishilgan holda pandemiya davrlarini inobatga olib, loyihani amalga oshirish muddatlari bir necha marta o'zgartirildi, - deydi loyihani amalga oshirish gu-ruhi direktori Nurbek Saidov. - Ya'ni, 2021-yil 28-iyundan 2024-yil 30-iyungacha qadar uzaytirildi. O'tgan yili agentlik tomonidan loyiha-smeta hujjatlari ko'rib chiqilib, 2 bosqichli xalqaro tender jaryoniga ruxsat berilgan edi. Ayni paytda tender yakunlanib, sentabr oyidan qurilish boshlanishi kutilmoqda.
Modernizatsiya ishlari Fransiya Taraqqiyot agentligining 23,53 million yevro, Yevropa Ittifoqining 8 million yevrolik granti hamda boshqa hamkorlarning 8,6 million yevrolik kredit mablag'lari sarflanishi ko'zda tutilgan bo'lib, hozirgacha 10,568 million yevro miqdorida mablag' o'zlashtirilgan. Jumladan, 80 ta maxsus texnika keltirildi. Shuningdek, Xishrav massivi hududidagi chiqindi poligoni uchun 5 ta yig'uvchi, ortuvchi va tozalovchi maxsus texnikalar xarid qilindi.
Tadbirda korxona mu-tasaddilari jamoatchilikka poligon va saralash kompleksi uchun yana o'nga yaqin maxsus texnikalarning xaridi kechikayotganligi, Samarqand shahrida 15 ta chiqindi to'plash shoxobchasi uchun yer ajratish, markaziy chiqindixonada chiqindilarni ko'mish (rekultivatsiya) ishlari kechikayotganiga izoh berdi.
Shuningdek, loyiha doirasida qurilishi lozim bo'lgan maishiy chiqindilar-ni saralash zavodi hamda biogazni yoqilg'iga aylantirish tizimi haqida ham ma'lumotlar berildi. Tez orada geo-informatsion tizim yaratish va axborot tizimlarini boshqarish uchun dasturiy ta'minot ishlab chiqish boshlanishi ta'kidlandi.
Dilmurod TO'XTAYEV.

Tibbiy metrologiya

Bu haqda nimalarni bilamiz?

Hayotimizda fan, texnika taraqqiyoti, yangi texnologiyalar, standartlar va aralashtirish vositalarining rivojlanishi munosabati bilan o'lchashlar ko'proq zamonaviy fizik miqdorlarni qamrab olib, o'lchov diapazonlari kengayib bormoqda. Bunday sharoitda o'lchovlar, metrologik ta'minot masalalari va muammolarini hal qilish uchun ular qayerda va qanday maqsadda amalga oshirilganidan qat'i nazar, amaliyotda yuqori sifatli o'lchovlarni ta'minlash uchun yagona ilmiy va qonunchilik bazasi zarur. Metrologiya ana shunday asosdir.

Misol tariqasida oladigan bo'lsak, laboratoriyalarga oid funksional tadqiqotlar sifatini yaxshilash, metrologik ta'minotni rivojlantirish, tibbiyot muassasalarida foydalaniladigan tibbiy uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish va uni sinovdan o'tkazish tizimini takomillashtirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Tibbiy metrologiya bo'limi tibbiyotda o'lchovlarning birligi va ishonchiligi ta'minlab, tibbiy ko'rsatkichlar, standartlar, namunalar va boshqalarni yaratish sohasida ilmiy tadqiqotlar olib boriladi. Tibbiy asboblar uchun metrologik talablar juda aniq.
Hozirda tibbiy o'lchovlar ko'p holda texnik tayyorgarlikdan o'tmagan tibbiyot xodimlari (shifokor, hamshira) tomonidan amalga oshiriladi. Shuning uchun qiymatlari yakuniy tibbiy o'lchov ma'lumotlari (to'g'ridan-to'g'ri o'lchovlar) bo'lgan jismoniy miqdorlar birliklari tasniflangan tibbiy asboblarni yaratish tavsiya etiladi. Bunda foydali natijaga erishgunga qadar o'lchash vaqti imkon qadar kamroq sarflanishi va ma'lumotlarning to'liq bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bu talablarga kompyuterlar javob beradi.



Tibbiy metrologiyaning eng muhim vazifalaridan biri - bu usul va vositalarni ishlab chiqishdir. Bu shifokor uchun barcha tibbiy o'lchov vositalariga metrologik talablarga rioya qilgan holda yetarli ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi.

2018-yil 15-fevralda Vazirlar Mahkamasining "Tibbiyotda qo'llanadigan laboratoriya va diagnostika uskunalari-ni metrologik nazoratini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan. Unda laboratoriyaga oid funksional tadqiqotlar sifatini yaxshilash, metrologik ta'minotni rivojlantirish belgilangan. Shuningdek, tibbiyot tashkilotlarida foydalaniladigan tibbiy texnikaga texnik xizmat ko'rsatish

va uni sinovdan o'tkazish tizimini takomillashtirib, aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatish samaradorligi va xavfsizligini oshirish uchun tibbiyot muassasalari, idoralar va xususiy tibbiyot tashkilotlari-ga bir qator vazifalar yuklangan.
Foydalanilayotgan o'lchash vositalari-niing qiyoslash jadvallari mavjudligi va ularning o'z vaqtida bajarilishi, davolash muassasalarining metrologik ta'minoti uchun mas'ul shaxslar tayinlanishi tibbiyot muassasasini litsenziyalashdagi muhim shart hisoblanadi. Va bu juda muhim. Chunki O'zbekistonda yildan-yilga davolash-diagnostika muassasalarining soni ko'payib bormoqda. Ularning metrologik ta'minoti to'liqroq qamrab olinishi uchun "Metrologiya xizmatlari ko'rsatish markazi" DM tomonidan qiyoslash, metrologik attestatlash va axborot, transport-servis xizmatlari, laboratoriya tadqiqotlari kabi servislarini o'z ichiga oladigan, kompleks yondashuv joriy etilmoqda. Hozirda markazda ultra yuqori chastotali terapevtik apparatlar, reograflar, elektromiograflar, EKG-xolter, elektro ensefaloagraflari qiyoslash va metrologik attestatlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatilmoqda. Shuningdek, bu yerda ultratovushli diagnostika uskunalari, dopler apparati, ExoEG, bosh miya exosignallarining analizatorlari, past chastotali terapevtik va muolaja uskunalari qiyoslashdan o'tkazilmoqda. Agar bu uskunalar o'z vaqtida tegishli qiyoslashdan o'tkazil-masa, tekshirish vaqtida bemor qanday miqdorda rentgen nuri bilan nurlanayotganligini aniqlash imkoni bo'lmaydi.
Latif BURXONOV,
"O'zMMI" Samarqand filiali mutaxassisi.



“ENG ULUG‘, ENG AZIZ”: IJODKORLAR TAQDIRLANDI

Vatanimiz mustaqilligining 32 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan “Eng ulug‘, eng aziz” an‘anaviy ko‘rik-tanlovning viloyat bosqichi g‘olib va sovrindorlarini taqdirlash tadbiri o‘tkazildi.

Unda viloyatimizda faoliyat olib borayotgan 17 nafar yozuvchi va shoir, jurnalistlar, tasviriy san‘at namoyandalari, qo‘shiqchi, foto va dizayn ustalari “Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun!” degan ezgu g‘oyani o‘zida mujassam etgan asarlari bilan ishtirok etib, g‘olib bo‘lgani aytib o‘tildi.

Taqdirlash tadbirida viloyat hokimining o‘rinbosari R.Qobilov hamda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist F.Toshev ishtirok etib, barchani bayram bilan tabrikkladi va g‘oliblarni taqdirladi.

YOZUVCHI VA SHOIRLARNING BADIY ASARLARI, JURNALISTLARNING PUBLITSISTIK NASHRLARI NOMINATSIYASI BO‘YICHA

Norxo‘ja Choriyev – “Az ishq i tu to ishq i Haq” she‘riy kitobi uchun;
Tozagul Jumanova – “Mumkiniston mamlakatiga sayohat” nasriy erklar kitobi uchun;
Abdualim Sulaymonov – “Zulmat va ziyo” qissasi uchun;

BOSMA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARINING IJODIY ISHLARI NOMINATSIYASI BO‘YICHA

Dilmurod To‘xtayev – “Zarafshon” gazetasi muxbiri;
G‘ulom O‘rolov – “Bulung‘ur hayoti” gazetasi muharriri;
Guljahon Mustafoyeva – “Past Darg‘om haqiqati” gazetasi muxbiri;

INTERNET-JURNALISTIKA NOMINATSIYASI BO‘YICHA

www.kathaq.uz – Kattaqo‘rg‘on tumani “Kattaqo‘rg‘on: kecha va bugun” gazetasi veb-sayti;
www.samarkandnews.uz – Samarqand shahar “Samarqand” gazetasi veb-sayti;

TELEVIDENIYE VA RADIO IJODKORLARINING MATERIALLARI NOMINATSIYASI BO‘YICHA

Lutfulla Shomurodov – viloyat teleradiokompaniyasining televideniye guruhi o‘z muxbiri;
Rahima Davirova – viloyat teleradiokompaniyasining radio guruhi maxsus muxbiri;
Sherzod Qahhorov – viloyat teleradiokompaniyasi teleoperatori;

TASVIRIY SAN‘AT, FOTO ASARLARI VA DIZAYN ISHLARI NOMINATSIYASI BO‘YICHA

Xurshid Xalilov – O‘zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a‘zosi, yosh rassom, dastgohli rangtasvirchi;
Mohina Qurbonova – “Tasviriy oyna” ijodiy uyushmasi dizayneri;
Bunyodjon Shavkatov – “Tasviriy oyna” ijodiy uyushmasi foto-dizayneri;

SAN‘ATKORLARNING YURTNI MADH ETUVCHI KUY VA QO‘SHIQLARI NOMINATSIYASI BO‘YICHA

Bahodirjon Xo‘jayev – “Samarqandim” qo‘shig‘i uchun;
Islomiddin Xudoyberdiyev – “Vatan zikri” qo‘shig‘iga bastalangan musiqasi uchun;
Shuhrat Isaqulov – Kinomotografiya agentligi viloyat hududiy bo‘limi hamkorligida suratga olingan “Umidli dunyo” filmi uchun.

O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a‘zosi, bulung‘urlik Xolboy Qosimov viloyat hokimining tashakkurnomasi bilan taqdirlandi.

“Yer yuzining sayqali” ko‘rgazmasi

BARCHA UCHUN OCHIQ

Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasida “Yer yuzining sayqali” nomli ko‘rgazma ochildi. Muzey xodimlari, mutaxassislar, olimlar, yoshlar hamda jamoatchilik vakillari ishtirok etgan tadbir-da mazkur ko‘rgazma o‘zbek xalqi va davlatchilik tarixi, Birinchi va Ikkinchi Renessans davri, buyuk allomalar hayoti va faoliyati, unda Samarqandning yuksak siyosiy va madaniy o‘rni va ahamiyatiga qaratilgani ta’kidlandi.

- Zarafshon vohasi hududidan topilgan tarixiy ashyolar, noyob topilmalar buyuk tarixdan darak berib turibdi, - deydi Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi bosh direktori Xo‘jaqul Muhammadiev. - Bugun sohaga e’tibor oshdi. Nufuzli xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etyapmiz, rivojlangan mamlakatlar bilan muzeysunoslikdagi hamkorlik kuchaydi. Bu yurtimiz, xususan, Samarqand tarixini jahon xalqlariga tanitishda muhim o‘ringa ega.

- Ko‘rgazmada Movarounnahr va Xurosonda yashab ijod qilgan buyuk mutafakkirlar, allomalarning dunyo ilm-faniga qo‘shgan hissasini yoritish, ularning asarlarini, siymolarini arxeologik, etnografik, tasviriy san‘at asarlari va manbalari yordamida tanishtirib borish ko‘zda tutilgan, - deydi muzey bosh muhofizi Mahmudxon Yunusov. - Ko‘rgazma davriy tartibda tashkil qilingan bo‘lib, unda bronza va ilk temir davrida Samarqand tarixidagi siyosiy, madaniy jarayonlar, Samarqandning Buyuk ipak yo‘lidagi mavqeyi, savdo yo‘llarida so‘g‘d tilining



ahamiyati, o‘rta asrlarda sopol, toshlar, metall va shishadan ishlab chiqarilgan nodir buyumlarning namunalari o‘rin olgan. Shuningdek, IX-XII asrlardagi Birinchi Renessansda Samarqandda taraqqiy etgan ilm-fan va madaniyatning Movarounnahr rivojiga ta’siri hamda Samarqand tarixini o‘rganish bilan bog‘liq arxeologik va etnografik ekspeditsiyalarda topilgan ashyolar tarix ixlosmandlari e’tiboriga havola qilinmoqda.

Ko‘rgazmada Sohobqiron Amir Temurning Samarqandni ilm-fan va madaniyat markaziga aylantirishi, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga qo‘shgan ulkan hissasi muzey ashyolari, miniatyuralar va tasviriy san‘at asarlari orqali namoyish etilmoqda.

Ko‘rgazma joriy yilning oktabr oyiga qadar davom etadi.

Sulaymon MARDIYEV, Baxtiyor MUSTANOV (surat).

DZYUDOCHI CHEMPION AKA-UKALAR

Samarqandlik dzyudochi Sardor Nurillayev va uning ukasi paradyudochi Kemran Nurillayev terma jamoa safida xalqaro musobaqalarda yurtimiz sharafiga munosib himoya qilib kelmoqda.

Angliyaning Birmingem shahrida IBSA jahon o‘yinlari va IBSA dzyudo jahon chempionati bo‘lib o‘tdi. Erkaklar o‘rtasida J2 klassida -60 kilogramm vazn toifasida yurtimiz sharafiga himoya qilgan paradyudochimiz Kemran Nurillayev oltin medalni qo‘lga kiritdi. U final bahsida gruziyalik Nukri Migrijanashviliga qarshi tatamiga chiqdi va ippon bahosi bilan g‘alaba qozondi.



Xorvatiya poytaxti Zagreb shahrida o‘tkazilgan dzyudo bo‘yicha gran-pri turnirida dunyoning 89 mamlakatidan 560 nafar sportchi bellashdi. Musobaqada -66 kilogramm vazn toifasida ishtirok etgan Sardor Nurillayev Gruziya, Estoniya, shuningdek, Ispaniyadan ikki raqibni mag‘lubiyatga uchratib, finalga yetib keldi.

U hal qiluvchi bahsda braziliyalik Villian Limaga qarshi tatamiga chiqdi. Bahs g‘olibi Golden Score‘da aniqlandi. Afsuski, Nurillayev finalda uchta shido evaziga imkoniyatni boy berdi va kumush medal bilan musobaqani yakunladi. Ushbu natija orqali Sardor jahon va Parij-2024 reytingi uchun 490 ochkoga ega bo‘ldi.

murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo‘li ko‘chasi, 9-“B” uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Normatov Murod To‘ychiyevich notarial idorasida marhum Badalov Xabib Xamrakulovichga (2020-yil 8-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Normatov Murod To‘ychiyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Andijoni mahallasi.

Past Darg‘om tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil o‘g‘li notarial idorasida marhum Buranova Zamira Ruziyevnaga (2021-yil 27-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Xamidov Norbek Komil o‘g‘li notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Past Darg‘om tumani Juma shaharchasi, Amir Temur ko‘chasi, 48-uy.

↓ Yonimizdagi odamlar

Inson qaysi kasbda bo‘lmasin, o‘zining halolligi, saxovatpeshaligi, mehnatkashligi bilan hurmat-e’tibor qozonadi. Bunday kishilar doim insonlar og‘irini yengil qilishga urinadi, nima qilsam, elimga, yurtimga yordamim tegadi, degan maqsadda umr kechiradi. Maqolamiz qahramoni Shuhrat Jo‘rayevni taniganlar u kishini haqiqiy ziyoli inson deb biladi.

Tilaganing eng avvalo, elda bo‘lsin...

Sh.Jo‘rayev 1963-yil 31-avgust kuni Samarqand shahri Mir Said Baraka mahallasida dunyoga keldi. Bolaligida o‘tkir zehn egasi bo‘lgan Shuhrat maktabni a‘lo baholarga bitirdi. Ilm olishga bo‘lgan ishtiyoq uni Samarqand davlat universitetiga yetakladi. 1985 yilda universitetni imtiyozli diplom bilan tugatdi. Diplom ishi yozish davri Moskva va Ozarbayjonda o‘tdi.

U dastlab O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi qoshidagi Fizika-texnika institutida shogird-ta’qiotchi, aspirant bo‘ldi. So‘ngra Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti kichik ilmiy xodimi, o‘quv jarayonlari tahlili va rejalashtirish laboratoriyasi mudiri, rektor yordamchisi, test sinovlarini o‘tkazish markazi boshlig‘i muovini lavozimlarida ishladi. Shuhrat Jo‘rayev ilmiy izlanishlari tufayli fizika-matematika fanlari nomzodi unvoniga sazovor bo‘ldi.

Sh.Jo‘rayev 2003-yildan o‘z kasbi o‘zgartirdi. U to‘qqiz yil mobaynida Samarqand shahridagi “Financ servis” firmasini boshqardi. Tadbirkorlik qilish bilan xalqqa, Vatanga foydasi tega boshlagach, o‘z faoliyatini yanada kengaytirishni niyat qildi.

Shu niyatda nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotini tashkil etdi. Uni “Samarqand ko‘zmunchog‘i” deb nomladi. Shuhrat Jo‘rayev o‘zining qalb qo‘ri,

bilim va tajribasini mazkur muassasaga bag‘ishladi.

Bugun “Samarqand ko‘zmunchog‘i” huzurida “Ko‘zmunchog‘i” akademiya-si ham faoliyat ko‘rsatmoqda. Unga hududdagi 1-2-sinf o‘quvchilari jalb etilib, ularga qo‘shimcha mashg‘ulotlar o‘tish orqali yana-da yaxshi bilim olishga ko‘mak berilmoqda.

Shuhrat Jo‘rayev 2020-yilda ikkinchi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti ishini yo‘lga qo‘ydi. “Kichkintoy” nomi bilan tanilgan ushbu 100 o‘rinli muassasada o‘g‘li Aziz va kelini Feruza Nurullayeva ish yuritaypti.

Ushbu yillar davomida Sh.Jo‘rayev hukumatimiz tomonidan munosib xizmatlari evaziga “Sodiq xizmatlari uchun” medali bilan taqdirlandi.

U oilada ham munosib ota bo‘ldi. Nigora opa Ikromova bilan 3 nafar farzandni voyaga yetkazdi. Farzandlari Vatan ravnaqi yo‘lida turli kasblarda mehnat qilyapti. Bugun u 7 nafar nabi-raning bobosi.

Halol mehnat ortidan ota-onalar orzusidagi bolalar bog‘chalari ochib, el-yurt farovonligi yo‘lida faoliyat yuritib kelayotgan Shuhrat Jo‘rayev bugun oltmish yoshni qarshilamoqda. Ustozga mustahkam sog‘lik, kelgusi ishlariga muvaffaqiyat tilaymiz.

Munira KLEBLEYEVA, faxriy pedagog.

REKLAMA, E‘LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA‘VOLAR BO‘LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Yarmuxamedov Rabbimga (2015-yil 9-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 80-uy.

Toyloq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Valixodjayev Farzod Botirovich notarial idorasida marhum Turayev Ismoilxon Djuraxonovichga (2023-yil 25-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Valixodjayev Farzod Botirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Toyloq tumani Toyloq shaharchasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Nurqosimov Jamshid Sayfiddinovich notarial idorasida marhum Kodiri

Aziza Alamzodaga (1999-yil 22-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Nurqosimov Jamshid Sayfiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Panjob ko‘chasi, 4-uy.

Past Darg‘om tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ahatov O‘lmas To‘rayevich notarial idorasida marhum Tilayov Avaz Sadikovichga (2021-yil 14-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ahatov O‘lmas To‘rayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Past Darg‘om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko‘chasi, 26-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Toxirov Muratga (2021-yil 21-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga



Toyloqlik yoshlar

“Ko’pkurash” harbiy-vatanparvarlik sport musobaqasining respublika bosqichiga yo’llanma oldi

Samarqand shahrida “Tinchligimiz, taraqqi-yot va farovonlik uchun!” shiori ostida kasb-hunar maktablari va texnikumlar o’quvchilari o’rtasida “Ko’pkurash” harbiy-vatanparvarlik sport musobaqasining viloyat bosqichi bo’lib o’tidi.

O’zbekiston yoshlar ittifoqi tashabbusi bilan tashkil etilgan musobaqada bellashuvlarning tuman va shahar bosqichlarida saralangan 16 jamoa tezkor savol-javob, o’q otish qurollarini qismlarga ajratish va yig’ish, kamondan o’q otish, harbiy biatlon, arqon tortish shartlari bo’yicha mahoratlarni sinovdan o’tkazdi.



Bellashuvlar natijasiga ko’ra, Toyloq tumani 1-kasb-hunar maktabining “Jasorat” jamoasi birinchi o’rin bilan musobaqa ko’chma kubogi hamda respublika bosqichiga yo’llanmani qo’lga kiritdi. Ikkinchi, uchinchi o’rinlar Jomboy va Narpay tumanlari 2-kasb-hunar maktablarining “Qalqon” jamoalariga nasib etdi.

G’olib va sovrindorlarga diplom, medal va esdalik sovg’alari topshirildi.

Navro’ztepa ko’klamda baxmal maysalar bilan qoplanadi. Tepa ustiga ko’tarilsangiz, moviy osmon toqiga chiqishingizga bir bahya qoladi go’yo. Ayniqsa, oqshom atrof sirli sukunatga cho’madi, pastdagi olis-yaqin qishloqlardagi son-sanoqsiz chiroqlar miltirab, yulduzlarga tutashib ketadi. Maysaga chalgancha yotib, huzur qilib, musaffo havodan to’yib-to’yib nafas olasiz. Tanangiz yayrab, charchoqlarni unutasiz.

Dam olish kuni, avval va’dalashilganidek uch qaddron do’sst tepaga ko’tarilishdi.

- Oh, oh, qanday go’zal, - Asad huzur qilib kerishdi.

- Osmonga qara, osmonga! - dedi Hasan samoga qo’l cho’zib. - Shundoqqina yulduzlarni kaftingga olsang bo’ladi. Shovqin-suron shaharda diqqinafas xonalarda siqilib, qog’oz titkilab o’tiraverib, olamda shunday maskan borligini unutilib qo’yibmiz-a?

- Kelinglar, bundan keyin dam olish kunlari faqat shu yerda hordiq chiqaramiz, - dedi Hafiz olis-olislariga zavq bilan nazar tashlarkan.

Do’stlar ishga kirishib ketishdi. Asad gulxan yoqib, kabob pishirishga unnadi. Hasan pomidor, bodring, piyoz to’g’rab, shakarob tayyorlashga tushdi. Hafiz das-turxon tuzadi. Yigitlar kabobxo’rlik qilishdi, bolaliklarini eslab, shirin suhbat qurishdi. Borliqni yoritib ko’k saltanatiga tun farishtasi - oy ko’tarildi.

Uch do’stning sho’x-shodon bolaligi Navro’ztepa etagida mol boqib, chillak o’ynab, zilol chashma suviga non ivitib yeb o’tgan. Oradan yillar o’tdi. Yigitlar ulg’ayishdi. Armiyada xizmat, o’qish, uylanish, ish bilan vaqt o’tganini bilmay qolishdi. O’ylab qarashsa, Navro’ztepaga chiqqanlariga yigirma yildan oshibdi. Bugun bunga afsus qilishdi. Miriqib dam olgan yigitlar tun yarmidan oqqanda uylariga qaytishdi.

...Hasanni xotini turtkilab uyg’otganda quyosh terak bo’yi ko’tarilib qolgandi.

- Turing, uchastka noziri so’rayapti.

- Nima ishi bor ekan? - Hasan uyquqli ko’zlarini ishqalab o’rnidan turdi, to’nini yelkaga tashlab, eshikka chiqdi.

- Assalomu alaykum, Hasan aka, uzr, xizmatchilik-da, bezovta qildim.

- Vaalaykum assalom, hechqisi yo’q, nima gap?

- Kiyinib chiqing, men bilan mahkamaga bora-siz, - dedi nozir buyruq ohangida.

- Nega? Tinchlikmi?

- Borganda bilasiz, bo’ling!

Hech narsaga tushunmay, dovdirab qolgan Hasan nari-beri kiyinib, nozining mashinasiga chiqdi.

- E, sizlar ham sherdasizlarmi? Nima gap, tinchlikmi, tushunmadim?

- Biz ham tushunmadik, - deyishdi Asad bilan Hafiz yelka qisib.

Mahkamaga yetib kelishdi.

- Olib keldim, o’rtoq boshliq!

- O’tiringlar, - boshliqning gap ohangida tahdid bor edi. - Xo’sh, kecha tunda qayerda edinglar?

Yigitlar “nima gap o’zi” deganday ko’z urishtirib olishdi.

- Navro’ztepada dam olgandik, - dedi Hasan hayron bo’lib.

- Keyin-chi? Nima qildilaring?



- Boshliq ovozingi ko’tardi.

- Keyin uyga qaytdik. Nima dam olish mumkin-masmi? - dedi Asad ensasi qotib.

- Dam olish? Yarim kechada dalada-ya? - boshliq istehzo bilan labini burdi. - Bo’pti! Sizlar bilan adi-badi aytishib o’tirishga vaqtim yo’q.

Navro’ztepa etagidagi Karim fermer molxonasidan novvos yo’qolgan. Tunda atrofta sizlarni ko’rishgan, o’g’irlikda gumon qilinyapsizlar!

- Yo, alhazar! - Hasan yoqasini ushladi. - O’rtoq boshliq, bizni kim deb o’ylayapsiz?

- Hech kim deb o’ylayotganim yo’q, novvos qayerda deb so’rayapman, xolos, - dedi boshliq piching bilan.

- Biz qayerdan bilaylik! - dedi Hafiz bo’shashib.

- Shunaqami? Navbatchi, guvohni olib keling, - buyurdi boshliq. Navbatchi xonaga rang-quti uchgan molxona qorovuli Xo’ja pismiqni boshlab kirdi. Voqea bunday tus olishini kutmagan pismiq yigitlar ham hayrat, ham nafrat bilan qarab turani- ni ko’rib, dovdirab qoldi.

- Siz gumon qilgan kishilar shularmi? - Boshliq pismiqqa tikildi.

- Hm... hm...

- Bu javob emas, “ha”mi, yo “yo’q”mi?

- Ha! - Xo’ja pismiq yerga qaradi.

Turmush chorrahalarida

- Tuhmat! - dedi Hasan unga nafrat bilan tikilib.

- Tushunarli! Ularni tergov xonasiga olib boring! - buyurdi nozirga boshliq. - Yozma ko’rsatmalar olib, tafsilotlar oydinlashguncha ushlab turing!

Karim fermer Hasanni ham, Asad va Hafizni ham yaxshi biladi. Obro’li, el nazaridagi kishilar, ularning mol o’g’irlashi hech aqlga sig’maydi.

Mol achchig’i - jon achchig’i. Xo’ja pismiqning gapiga ishonib, shosha-pisha uchastka noziriga xabar berganidan afsuslandi. Balki pismiq qorovulxonada uxlab yotganida novvos bo’shalib ketgandir. Karim fermer molboqarlarni tevarak-atrofni qidirib chiqishga jo’natdi.

- Surishtirdik, yo’q, hech kim ko’rmadi, - dedi qaytib kelgan Shodi podachi.

- Keyin biroz o’ylanib turgach, ikkilanib, Karim fermerni qaradi. - Uka, meni kechirasiz, bunda pismiqning qo’li yo’qmi-kan? Yana kim biladi, “Gumon iymondan ayiradi”, deyishadi. Balki noo’rin shubhala-nayotgandirman, Xudoning o’zi kechirsinki! Kecha kechqurun mollarga yemish bergach, uyga qaytayotganida pismiq Jovli qassob bilan qorovulxona oldida gaplashib turgan ekan. Bilasiz, pismiq dallollik ham qiladi, ertaga mol bozor, qassob bir maslahat bilan kelgandir-da, deb o’yladim. Salomlashib o’tib ketdim, orqamdan shivir-shivir qilib qolishdi. Qandaydir shubhali edi.

- Shunaqami? - Karim fermer biroz o’ylanib turgach, otlanib Jovli qassobnikiga yo’l oldi.

- Ichkarida, chorvoqda mol so’yayapti, - dedi qassobning xotini. - Chaqiraymi?

- Yo’q, ovora bo’lmang, yanga, o’zim o’ta qolay. Hozirgina so’yilgan molning terisini shilayotgan Jovli qassob Karim fermerni ko’rib, dong qotib qoldi.

- Hormang, qassob, omadingiz kelibdimi, deyman, - Karim fermer so’yilgan novvosini tanigan edi. Qo’lidagi qamchi bilan Jovli qassobning basharasiga tushirdi.

... - Navbatchi, ushlab turilgan yigitlarni olib keling, - buyurdi boshliq, - Guvoh qorovul qolsin. - Xo’p bo’ladi, o’rtoq mayor!

Navbatchi yigitlarni boshlab keldi. Boshliq deraza yonida ichkariga orqa o’g’irib, tashqariga qarab turardi.

- Uzr, yigitlar, - dedi o’girilmay, - ishimiz shunaqa, gumondorlarni so’rab-surishtirish vazifamiz. Sizlar bo’shsizlar, o’g’rilar topildi! Navbatchi, bu shaxsni esa kameraga olib keting. - U burchakda qo’nishib turgan Jovli qassobni ko’rsatdi.

- Mana, hordiq ham oldik, - dedi Hasan ko’chaga chiqqanlarida erkin nafas olib. - Ozodlikka nima yetsin! Qani, ketdik, uydagilar xavotirlanib o’tirishgandir.

Tog’aymurod SHOMURODOV.

PAST DARG’OM TUMANI TIBBIYOT BIRLASHMASI JAMOASI

barcha yurtdoshlarimizni istiqlolimizning

32 YILLIGI

bilan qutlaydi.

Qutlov va reklama

MATBUOT UYI

Zarafshon

С АМАРКАНДСКИЙ В ЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O’zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro’yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 418 nusxada chop etildi. Buyurtma 462. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E’LONLAR: (66) 233-91-56

BO’LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug’ Tursunov ko’chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo’limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. **Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko’chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G’ .HASANOV.

Navbatchi:

D.TO’XTAYEV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o’tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda